

## TILSHUNOSLIKDA IZOMORFIZM VA ALLOMORFIZM TUSHUNCHALARI VA ULARNING LINGVISTIK TABIATI

**Qodirova Xolidaxon Ulug‘bek qizi**

Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi

E-mail: [qodirovaxolidaxon1999@gmail.com](mailto:qodirovaxolidaxon1999@gmail.com)

**Ohunov Asilbek Olimjon o‘g‘li**

Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada tilshunoslik tarixiga izomorfizm va allomorfizm tushunchalari kirib kelishi, shuningdek ularning lingvistik xususiyatlari batafsil ko‘rib chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** lingvistika, glossematika, fonologiya, semantika, izomorfizm, allomorfizm, gap, bo‘g‘in.

Dastlabki ma‘lumotlarga qaraganda izomorfizm konsepsiyasi tabiiy fanlar tizimida paydo bo‘lgan va qo‘llanilgan. Keyinchalik bu tushuncha fanning boshqa sohalari, xususan falsafa so‘ngra tilshunoslikda ham ishlatila boshlagan. Olimlar izomorfizm tushunchasini turlicha nuqtai nazardan izohlaydilar. Mantiq fani bo‘yicha olim P.C. Nobikov: “Agar ikki sistema elementlari o‘rtasida o‘zaro bir xil o‘xshashliklar mavjud bo‘lsa, ularni izomorf sistemalar deb atash mumkin. Izomorfizm munosabati refleksiv, simmetrik va tranzitiv bo‘ladi.” deb izoh beradi. Lingvistik atamalar lug‘atida esa bu atamaga quydagicha ta‘rif beriladi: “Izomorfizm bu - bir xil obyektli tuzilmalar orasidagi munosabat . Agar bir tuzilmaning har bir elements ikkinchi tuzilmaning faqatgina bitta elementiga to‘g‘ri kelsa, bunday ikki tuzilma izomorf deyiladi. Odatda izomorflar strukturaviy va vazifaviy turlarga ajratiladi.” Ko‘rinib turibdiki, izomorfizm tushunchasi asosan tenglik munosabatiga asoslangan bo‘lib, tuzilmalar bir- biriga qiyoslab tadqiq etiladi.

Tilshunoslik sohasiga birinchi marta izomorfizm tushunchasi XX asrning o‘rtalarida polyak tilshunosi Yerzi Kurilovich olib kirgan. Kurilovich o‘zining 1949-yilda chop etilgan " Izomorfizm haqida tasavvur" nomli maqolasida tilshunoslikda izomorfizm qanday hodisa ekanligi va uning xususiyatlari haqida so‘z yuritadi.

Izomorfizm atamasi lotin tilidan olingan bo‘lib, " izo " - o‘xshash, " morfo " - shakl degan ma‘nolarni anglatadi. Kurilovichning tushuntirishicha, tilning fonik va semantik jihatlari turli til bo‘limlariga tegishli bo‘lsada, ular o‘rtasida strukturaviy o‘xshashlik, ya‘ni parallelizm mavjud va bu hodisa izomorfizm deb nomlanadi. Misol

uchun, fonik birlik - bo'g'in va semantik birlik - gap o'rtasidagi analogiyalar yohud o'xshashliklarni qiyoslaydigan bo'lsak ularning har ikkisi ham markaziy xususiyatga ega ierarxik tuzilmalardir. Bo'g'in uchun majburiy bo'lgan komponent bu unli tovush bo'lsa, kesim komponentisiz gapni tasavvur qilib bo'lmaydi. Undoshlar va gapning qolgan bo'laklari ixtiyoriy va unchalik ham muhim bo'lmagan komponentlar hisoblanadi.

Kurilovichdan avvalroq 1936 - yildagi Kopengagenda o'tkazilgan tilshunoslik konferensiyasida L. Yelmslev va X.I. Uldall o'z nutqlarida tilning turli bo'limlaridagi chuqur parallelizm haqida tilga olib o'tishadi. Ikki til bo'limlaridagi chuqur strukturaviy parallelizmi g'oyasi Kopengagen struktura maktabining asoschisi L. Yelmslev glossematik konsepsiyasining asosiy g'oyalaridan biri hisoblanadi.

Izomorfizm konsepsiyasi ustida Kurilovichdan boshqa olimlar ham o'z tadqiqot ishlarini olib boradilar. Ulardan biri E. A. Makayev izomorfizmni turli darajadagi til birliklari tuzilishining bir xilligi deb ta'riflaydi, bu esa turli darajadagi til birliklari o'rtasidagi munosabatlarning bir xilligini keltirib chiqaradi yoki olib kelishi mumkin.

Makayevning fikricha, izomorfizmni bunday talqin qilish til strukturasi o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi va uning turli darajalari bilan bog'liqligini ko'rsatib beradi. Bu esa o'z navbatida turli darajadagi birliklarning bir xil tuzilmalarini ochishga yordam beradi, misol uchun cheksiz variantlarga ega bo'lgan cheklangan miqdordagi invariantlar, barcha darajadagi birliklar tomonidan tuzilgan paradigmalarning mavjudligi; tipologik grammatikani qurish bilan bog'liq bo'lgan tilning turli darajalarini qayta qurish imkonini beradi.

Allomorfizm tushunchasi haqida so'z yuritadigan bo'lsak, bu tushuncha izomorfizmga zid bo'lgan tushuncha bo'lib, til bo'limlaridagi farqlarni ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, izomorfizm va allomorfizm tushunchalari tilshunoslikdagi muhim konsepsiyalardan bo'lib, ular ikki til bo'limlardagi o'xshashlik yoki farqlarni tushuntirishda katta o'rin tutadi. Hozirgi kungacha bu sohada kam tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lib, ularni yanada chuqurroq va tillar aro qiyosiy tadqiq qilib o'rganish hozirgi zamoniy lingvistikaning muhim talablaridan biridir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Yelmslev, L. " Prolegomeny k teori iazyka" Novoe v lingvistike no. 1. Moscow, 1960.
2. Kurylowicz, J. " Poniatie izomorfizma" ocherki po lingvistike. Moscow, 1962.
3. Makaev. E. A. " K voprosu ob izomorfizme " Voprosy iazykoznaniiia , 1961, no .5

4. Bocharova. M. A " Yavlenie izomorfizma v tipologicheskom terminovedenii " Ocherk. Moscow.
5. Kondakov, N. I. Logicheskiy slovar cpravochnik. Moscow: Nauka ,1975.
6. Axmanova. O. C. Slovar lingvistikicheskiy terminov. Moscow, 2004